27-fevral kuni Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida **“Milliy statistika tizimi: nazariya va amaliyot”** mavzusida “Davra suhbati” bo‘lib o‘tdi. Tadbirda Davlat statistika qo‘mitasi, Kadrlarni qayta tayyorlash va statistika tadqiqotlari markazi xodimlari, TATU o‘qituvchilari va talabalari hamda OAV vakillari ishtirok etdi.

Davra suhbatida ta’kidlanganidek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 31-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori soha faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish, statistika axborotlarini yig‘ish, to‘plash, saqlash, qayta ishlash hamda ularni Internet tarmog‘i, ommaviy axborot vositalari va mahalliy telekanallar orqali keng tarqatishni yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, bugungi “Axborot asri”da statistik axborotlarning erkinligi, oshkoraligini ta’minlash, mamlakatimizning rivojlanish ko‘rsatkichlarini xalqaro statistik to‘plamlarda chop etish hamda turli yo‘nalishdagi reytinglarda aks ettirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shundan kelib chiqib, xalqaro statistik, iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari yanada mustahkamlanmoqda.

Tadbirda Davlat statistika qo‘mitasi vakillari talabalar va professor-o‘qituvchilarning savollariga atroflicha javob berdilar.

TATU matbuot xizmati

© Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti - 2024